

Kichik tadbirkorlik  
Yanvar-dekabr 2018 yil

## E'tibor bering!

>2018 yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 75,9%ni tashkil etdi.


>2,0 mingta yangi kichik korxona va mikrafirmalar tashkil qilindi.

>2018 yilning yanvar – dekabrda kichik tadbirkorlok sub'ektlarining soni ( har 1000 aholiga, birlikda) 11,7 birlikni tashkil qildi.

2018 yilning yanvar-dekabrda 2,0 mingta yangi kichik korxona va mikrafirmalar ( fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) tashkil qildi,bu o'tgan yilning shu davriga nisbati 28,4% ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrafirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda savdo (27,6) sanoatda(22,1), qurilish tarmog'ida (11,3) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga (11,1%), yashash va ovqatlanishda( 10,7%), tashih va saqlashda (4,0%) tashkil etgan.

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan Kichik korxona va mikrofirmalarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



## 2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'Ichov birligi	2017 y.	2018 y.	(+/-)
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlik</b>	<b>10900</b>	<b>11815</b>	<b>915</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar</b>	<b>birlik</b>	<b>1565</b>	<b>2009</b>	<b>444</b>
YaHM	%	78,3	75,9	-2,4
Sanoat	%	42,1	31,7	-10,4
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,4	99,4	0,0
Investitsiya	%	52,6	50,2	-2,4
Qurilish	%	87,4	88,4	1,0
Savdo	%	87,0	80,1	-6,9
Xizmatlar	%	71,2	68,4	-2,8
Yuk tashish	%	92,2	93,7	1,5
Yuk aylanmasi	%	92,3	90,9	-1,4
Yo'lovchi tashish	%	93,6	94,4	0,8
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,0	96,5	0,5
Eksport	%	50,2	67,5	17,3
Import	%	94,1	95,8	1,7


**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona  
va mikrofirmalar**

(birlikda)

	<b>yanvar-dekabr 2017 y.</b>	<b>yanvar-dekabr 2018 y.</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1565</b>	<b>2009</b>
Urganch sh	453	542
Xiva sh	120	180
<i>Tumanlar:</i>		
Bog'ot	55	105
Gurlan	91	100
Qo'shko'pir	89	137
Urganch	195	244
Xazorasp	105	140
Xonqa	120	153
Xiva	138	130
Shovot	63	118
Yangiariq	93	97
Yangibozor	43	63

2018 yilda yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Urganch shahrida - 542 ta, Urganch tumanida - 244 ta, Xiva shahrida - 180 ta. Xonqa tumani - 153 ta, Xazorasp tumanida - 140 ta, Qo'shko'pir tumanida - 137 ta. Xiva tumanida-130 ta Shovot, Bog'ot, Yangiariq tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 97-105 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Yangibozor tumanida –63 tani tashkil etgan.

**2018 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan  
kichik korxona va mikrofirmalarining hududlar  
bo'yicha ulushi**



2018 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarining jami miqdoridan eng ko'p ulush Urganch sh. ga - 26,9 %, Urganch tumani - 12,2 %, Xiva shahri - 8,9 %, Xonqa tumani - 7,6 %, Xazorasp tumani - 7,0 %, Qo'shko'pir tumani 6,8 %, Xiva tumani - 6,5 %, Shovot tumani - 5,9 %, Bog'ot tumani - 5,2 %, Gurlan tumani - 5,0 %, Yangiariq tumani - 4,8 %, eng past ko'rsatkich Yangibozor tumanida - 3,1 % ni, tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan  
kichik korxona va mikrofirmalar**

(birlikda)

	<b>yanvar-dekabr 2017 y.</b>	<b>yanvar-dekabr 2018 y.</b>
<b>Jami</b>	<b>1565</b>	<b>2009</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	191	224
Sanoat	385	445
Qurilish	164	228
Savdo	360	555
Tashish va saqlash	78	81
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	142	216
Axborot va aloqa	32	35
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	53	51
Boshqa turdag'i xizmatlar	160	174

2018 yil yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p savdoda 555 ta, shuningdek :

**sanoatda** - 445 ta;


**qurilishda** - 228 ta;

**qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida** - 224 ta;

**xizmatda** - 216 ta ni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Urganch shahrida 20,5 birlikda, Yangibozor tumanida 16,2 birlikda, Yangiariq tumanida 14,7 birlikda, Xiva tumanida 14,3 birlikda, Xiva shahrida 13,7 birlikda va Urganch tumanida 12,2 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 9-11 birlik oralig'ida Gurlan, Xonqa, Shovot, Qo'shko'pir, Bog'ot tumanlarida aniqlandi. Xazorasp tumanida 8,3 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda

### **2018 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)**




Agar, 2017 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,1 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 11,7 birlikka yetdi va 2017 yilga nisbatan 0.6 birlikka ko'paydi.

## Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga.




Quyida, 2018 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 31,7 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 99,4 %, qurilishda - 88,4 %, investitsiyada - 50,2 %, savdoda - 80,1 %, eksportda - 67,5 %, importda - 95,8 %va xizmatlar sohasidagi - 68,4 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

### 2018 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




## Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-dekabr holatiga, %

2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 75,9 %ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-dekabrida 78,3 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.



### Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



**2018 yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning  
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>	<b>Investitsiya</b>
<b>Xorazm</b>	<b>31,7</b>	<b>88.4</b>	<b>68.4</b>	<b>50.2</b>
Urganch sh	46.1	84.4	41.1	20.6
Xiva sh	<b>99.6</b>	<b>98.1</b>	<b>92.4</b>	<b>78.9</b>
<i>Tumanlar:</i>				
Bog'ot	70.4	95.3	96.2	54.1
Gurlan	41.2	98.9	98.0	55.7
Qo'shko'pir	48.3	89.4	95.3	48.6
Urganch	75.8	87.1	83.2	47.8
Xazorasp	5.9	100.0	95.4	69.2
Xonqa	34.3	83.5	97.4	71.1
Xiva	100.0	77.4	95.7	53.6
Shovot	65.9	99.9	96.3	82.2
Yangiariq	36.2	98.8	98.3	58.1
Yangibozor	38.6	90.8	97.0	71.4


Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Xiva tumani (100.0 %), Xiva shahar (99,6 %) va Urganch (75,8 %) tumanlari tashkil etadi.

**Qurilishda** - Xazorasp (100,0 %), Shovot (99,9 %) Gurlan (98,9 %), va Yangiariq (98,8 %) tumanlarni tashkil etadi.

**Xizmatlar sohasida** Yangiariq (98,3 %), Gurlan (98,0 %), Xonqa (97.4 %), Yangibozor (97,0 %), Shovot (96,3 %), va Bog'ot (96,2 %) viloyatlari tashkil etadi.


**Investitsiyada** - Xiva shahar (78,9 %), Shovot (82,2 %) va Yangibozor (71,4 %) tumanlari tashkil etadi.

## Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Xiva tumani - 100,0 %, Bog'ot tumanida – 93,8 %, Xiva shahari - 88,4 %, Xonqa tumanida - 81,0 % , Shovot tumani - 80,4 % Urganch shah - 66,1 % , Gurlan tumani - 31,8 %, Xazorasp tumani – 22,5 %, Qo'shko'pir tumani 15,1 %, Urganch tumani - 9,2 %, , eng past ko'rsatkichni Yangibozor - 6,3 % va Yangiariq tumani –0.0 % ni tashkil etdi.


## 2018 yil yanvar-dekabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (646,4 mlrd. so'm), Bog'ot (265,2 mlrd. so'm), Shovot (168,6 mlrd. so'm) va Xazoraspda (151,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Xiva shahar (55,1 mlrd. so'm) va Yangibozor tumanida (45,3 mlrd. so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




**2018 yil yanvar-dekabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi  
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %**



Hududlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Xiva tumanida (100,0%), Xiva shahri (99,6%), Urganch tumani (75,8%), Bog'ot tumani (70,4%), Shovot tumani (65,9%), Qo'shko'pir tumani (48,3%) va Urganch shahari (46,1%). Gurlan (41,2%) Yangibozor tumanida (38,6%) Yangiariq tumanida (36,2%) Xonqa tumani (34,3%) va Xazorasp tumanida (5,9%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.


## 2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (841,0 mlrd. so'm), Xazorasp (514,3 mlrd. so'm), Urganch (406,3 mlrd. so'm), Gurlan (327,2 mlrd. so'm), va Yangiariq (262,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




## 2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (342,7 mlrd. so'm), Xiva tumani (178,2 mlrd.so'm), Xonqa (174,1 mlrd. so'm) hamda Urganch (171,5 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.




## 2018 yil yanvar- dekabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha ko'proq xizmatlar hajmi Urganch shahri (879,4 mlrd.so'm), Urganch (301,6 mlrd.so'm), Xazorasp (275,3 mlrd.so'm), Xonqa (213,9 mlrd.so'm) va Gurlan (209,9 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2018 yil IV - chorak yakunlariga ko`ra , yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 57 respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalari - 12 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 21,0%), qurilish-7 (12,3 %), savdo -16 (28,1 %), xizmatlar sohasi-16 (28,1 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 6 (10,5 %) tashkil etdi.

**2018 yil IV - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan  
yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**




Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning ulushi Urganch shahrida - 29,8 %, Urganch tumani - 12.3 %, Qo'shko'pir tumani - 8,8 %, Xazorasp tumani - 8,8 %, Xiva va Shovot tumanida - 7,0 %. ulushini tashkil qildi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 28,6 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 71,4 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 62,5 % va 37,5 %, xizmatlar sohasida – 62,3 % va 37,5 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 33,3 % va 66,7 %, sanoatda – 33,3 % va 66,7 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar mikrafirma va kichik korxonalar bo'lindi.

### **Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil IV–chorak uchun, %**



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 75,0 % sanoat korxonalari, 100,0 % – savdo, 93,7 % – xizmatlar, 66,7 % – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 85,7 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

## Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibayotgan chora tadbirdilar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

## Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: T.Xodjaniyazov

Tel.: (0372) 230-87-69, 230-87-66